

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ORIENTAL UNIVERSITETI



## “OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARINI O'QITISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI” MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

## INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE MATERIALS «PROBLEMS AND SOLUTIONS FOR TEACHING PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL SUBJECTS IN HIGHER EDUCATION»

13 dekabr 2022 yil

### I-QISM

TOSHKENT-2022

**“OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARINI  
O‘QITISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI”  
Xalqaro ilmiy–amaliy konferensiya materiallari.**

Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitishni yanada yuqori bosqichga olib chiqish hamda ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar bilan yaqindan tanishish, ularni amaliyatga tatbiq qilish, pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik, psixologik va informatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, xalqaro, madaniyatlararo aloqalarini yuksak darajaga ko‘tarish, jahondagi yuksak mavqeidagi nufuzli psixologiya maktab olimlari asarlaridan bahramand bolish, Ilmiy-amaliy hamkorliklarni yolga qo‘yish orqali xalqaro faoliyatlanı jadallashtirish, ta’lim sifatini oshirish kabi masalalar muhokamasi anjumanning maqsad va vazifasini tashkil qildi.

Mazkur to‘plamda Oliy ta’lim muassasalari talabalarida psixologik-pedagogik bilimlarni shakllantirish masalalari, uzuksiz ta’lim tizimida o‘qitish: metodika va zamonaviy yondashuvlar, xorijiy tillarni o‘qitishda psixologik bilimlarning ahamiyati, bo‘lg’usi kadrlarni tayyorlashda kasbiy xususiyatlarni shakllantirish muammolari, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishning asosiy psixologik shart-sharoitlari, talabalar jamoasida shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari masalalariga doir maqolalar jamlangan. To‘plam materiallaridan oliy ta’lim tashkilotlari professor-o‘qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, talabalar va sohaga qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

**Xalqaro ilmiy–amaliy konferensiya materiallari O‘zbekiston respublikasi Oriental universiteti Kengashining 2022 yil 25 noyabrdagi 4-sonli bayonnomma bilan nashrga tavsiya etilgan.**

*To‘plamga kiritilgan maqolalarning mazmuni, ilmiy to‘g’riligi va dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldir.*

# **КАСБИЙ-ТЕХНОЛОГИК ВАРИАТИВЛИК ЎҚУВ ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ АСОСИ СИФАТИДА**

**Курбанова Муаттар Эркиновна**

*Чирчик давлат педагогика университети, ўқитувчиси*

**Аннотация:** ушбу мақолада малакали педагог кадрлар тайёрлаш ҳамда таълим муассасаларини шундай кадрлар билан таъминлаш тизимини янада такомиллаштиришга оид чора тадбирлар таълим жараёнида илғор педагогик услуг ва технологиялар ахборот коммуникация воситалари электрон таълим ресурслари ва мультимедиа тақдимотларда фойдаланиш, касбий-технологик вариативлик ўқув жараёнида инновацион фаолиятни ташкил этишнинг асоси эканлиги илмий таҳлил этилган.

**Таянч иборалар:** педагог кадр, илғор педагогик услуг, технология, ахборот, коммуникация, электрон таълим, касбий-технологик вариативлик, ўқув жараёни, инновацион фаолият, мультимедиа.

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются меры по дальнейшему совершенствованию системы подготовки квалифицированных педагогических кадров и обеспечению образовательных учреждений такими кадрами, передовые педагогические методы и технологии в образовательном процессе, использование информационно-коммуникационных средств в электронных образовательных ресурсах и мультимедийных презентациях, профессионально-технологическая вариативность является основой организации инновационной деятельности в образовательном процессе. научно проанализирован образовательный процесс.

**Основные фразы:** педагогический коллектив, передовой педагогический стиль, технология, информация, коммуникация, электронное образование, профессионально-технологическая вариативность, образовательный процесс, инновационная деятельность, мультимедиа.

**Abstract:** this article discusses measures to further improve the system of training qualified teaching staff and providing educational institutions with such personnel, advanced pedagogical methods and technologies in the educational process, the use of information and communication tools in electronic educational resources and multimedia presentations, professional and technological variability is the basis for the organization of innovative activities in the educational process. the educational process is scientifically analyzed.

**Key phrases:** teaching staff, advanced pedagogical style, technology, information, communication, e-education, professional and technological variability, educational process, innovative activity, multimedia.

Узлуксиз таълим тизимининг барча турлари ва босқичларида самарадорликни ошириш ва такомиллаштиришнинг янги механизми сифатида педагогик таълим кластерини ривожлантириш, таълим парадигмаларининг янги имкониятларини яратиш, кластер ёндашуви асосида манфаатли ҳамкорликнинг истиқбол натижаларини, бўлажак мутахассисларнинг касбий тайёргарлик жараёнини янада ривожлантиришга хизмат қилувчи ўқитиши технологияларини ишлаб чиқиш тобора долзарб аҳамият касб этмоқда.

Дунёда таълимнинг мазмунининг касбий – технологик вариативлигини, узлуксизлик ва изчиллик тамойилларига асосланган кластерли ёндашувнинг замонавий ва истиқболли меҳнат бозори талаблари асосида диверсификациялаш, ўқитиши усувларини технологик тараққиёт ғоялари билан уйғунлаштириш, таълим сифати назарияси ва методологиясининг етакчи ғояларини татбиқ этиш орқали амалга ошириш бўйича қатор илмий изланишлар олиб борилмоқда [3]

Таълим тизимининг жамият барқарор ривожланишидаги юқори ижтимоий аҳамиятидан келиб чиқсан ҳолда замонавий талаблар, тизимдаги муаммолар ва уларни ҳал қилишда фан ва таълим бўғинлари ўртасидаги алоқадорликни таъминлаш узлуксиз педагогик таълимни кластер тизимида ўқув жараёнини ташкил этиш механизмини ривожлантириш заруратини тақозо этмоқда.

Шу сабабли, кластер ёндашуви асосида бўлажак кимё ўқитувчисини касбий фаолиятга тайёрлаш ҳолати илмий ва амалий педагогик методлар орқали ўрганилганда, олий таълим муассасаларида мутахассислар тайёрлаш асосан бир хил, яъни давлат таълим стандартлари, ўқув режа, намунавий ўқув дастури каби меъёрий хужжатлар асоидаташкил этилиши, кластер ёндашуви ва касбий фаолиятга тайёрлашда касбий-технологик вариативлик деярли амалда қўлланилмаётганлиги маълум бўлди.

Касбий-технологик вариативлик ўқув жараёнинда инновацион фаолиятни ташкил этиш, турмуш тарзи ижтимоий ҳолатга тааллукли ахборот оқимининг тобора жадаллашуви бугунги маълумотларни тезкор қабул қилиб олиш, таҳлил қилиш, қайта ишлаш, назарий жиҳатдан умумлаштириш, хulosалар чиқариш ҳамда таълим олувчига етказиб бериш суръатини оширишни тақозо этади.

Таълим соҳасида олиб борилаётган республикамиздаги ислоҳатлар ўқув жарёнида илғор педагогик технологияларни қўллаш тажрибаларни ўрганиш ва таҳлил қилиш ҳамда яқин истиқболда бу тажрибалардан узлуксиз таълим муасасалардаги ўқув жараёнларда фойдаланишни қўзда тутади [1]

Малакали педагог кадрлар тайёрлаш ҳамда таълим муассасаларини шундай кадрлар билан таъминлаш тизимини янада такомиллаштиришга оид чора тадбирлар таълим жараённида илғор педагогик услуг ва технологиялар ахборот коммуникация воситалари электрон таълим ресурслари ва мультимедиа тақдимотларда фойдаланиш лозимлиги кўрсатади.

Маълумки, таълим тизимидағи ислоҳотлар, педагогдан психологик ўзгаришлар талаб қиласиди. Ўқув жараёни олға силжиши учун педагог ва таълим олувчилар

ҳамкорлигига асосланган янги педагогик фаолиятни йўлга қўйиш, ижодий ёндашув технологиясини ўзгартириш лозим [4]

Замонавий тажрибаларни ўзлаштириш жараёнида педагог муаммоларни англаб этиш, касбий-технологик вариативликни дастурлаб, амалга ошириш ва янги тажрибани мустаҳкамлаш каби босқичларни ўташ лозим [2]

Тажрибалар шуни кўрсатдики, касбий-технологик вариативликни қўллашни амалга ошириш учун биринчи туртки педагогик фаолиятда баъзи нуқсонларни кўзга ташланиши, ишдаги натижаларнинг янги талабларга жавоб бера олмаслик каби ташқи омиллар таъсирида вужудга келди.

Касбий-технологик вариативликни амалга ошириш учун педагогда ўз услубларидан қониқмаслик ҳисси уйғониши, яъни ташқи омиллар ички омилга айланиши керак бўлади.

Шу билан бирга, педагогдан ўзини танқидий нуқтаи-назардан баҳолаш ва бунинг учун ундан кенг дунёқараш, психологик - педагогик фан ва амалиёт натижаларини билиш талаб қилинади.

Амалиётдан маълумки, педагоглар маълумот олишда касбдошлар билан мулоқот, матбуотдаги услубий тавсиялар ва мақолалар каби тезкор, осон қўлга киритиладиган манбаларга таянади.

Вариатив дастурлар амалга ошириш жараёнини уч турга бўлиш мумкин: янгилаш, тўлдириш ва мукаммалаштириш.

Биринчи босқич илгари ўзлаштирилган усулларни янгиларига алмаштиришни тақозо этади.

Иккинчи босқичда эса аввалги усуллар сақланган ҳолда уларга янги усуллар қўшилади.

Учинчи босқичда фаолиятнинг турли усулларини қўллаш орқали маҳорат оширилади.

Касбий-технологик вариативлик педагогик восита, шакл ва методларни мустаҳкамлаб, таркибий жиҳатдан ўзгартиришни талаб этади.

Сўнгги йилларда замонавий таълим амалиётда икки йўналиш ажralиб чиқди:

1) Таълимнинг анъанавий шакллари, усул ва воситаларни такомиллаштириш йўналиши;

2) Таълим жараёни технологиялаштиришни жадаллаштириш йўналиши.

Зеро, анъанавий усуллар ўрнига янги технологияларларнинг кириб келиши ўкув жараёнида таълим самарадорлигини оширишга имкон беради.

Ўкув жараёнига қўллаш учун вариатив технология куйидаги талабларга жавоб бериши лозим:

- 1) таълим жараёнида талабга эга бўлиши;
- 2) “Педагог-таълим оловчи” тизимига мувофиқ бўлиши;
- 3) услубий тизимга нисбатан универсал бўлиши .

Ўкув жараёнини моделлаштиришга таалуқли талаблар ҳам мавжуд:

- 1) ўкув жараёни моделининг яхлитлиги, узвийлиги;
- 2) ўкув жараёнининг ахборотлашган моделини технологиялаштириш.

Ўкув жараёнининг алоҳида элементларини тартиблаш мақсадида уларни олдиндан лойиҳалаш касбий-технологик вариативликни жорий қилишда муҳим аҳамиятга эга.

Мазкур вазифаларнинг муваффақиятли ҳал этилишида яна бир омилнинг мавжудлиги, яъни, узлуксиз таълим тизими ходимлари, педагог-ўқитувчилар томонидан вариатив технологиянинг моҳиятидан хабардорликлари ҳамда уларни таълим жараёнида самарали қўллай олишлари, шунингдек, таълим жараёнини ташкил этишга нисбатан ижодий ёндашувнинг қарор топиши муҳим аҳамият касб этади.

Демак, хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ҳозирги даврда содир бўлаётган инновацион жараёнларда таълим тизими олдидағи муаммоларни ҳал этиш учун янги ахборотни ўзлаштирган, бу ахборотларни ўзлари томонидан баҳолашга қодир, зарур қарорлар қабул қилувчи, мустақил ва эркин фикрлайдиган мутахассис кадрлар тайёрлаш учун ўқитиш мазмунининг касбий-технологик вариативлигини ривожлантириш керак.

## **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР**

1. Хайдарова О.Қ. Булажак касб таълим ўқитувчиларини таълим жараёнига технологик ёндошувга тайёрлаш: Дисс. ... пед. фан. номз. - Т.: 2005.- 143 б.
2. Хугорский А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. - 2003. - №2,- С. 58-65.
3. Шадриков В.Д. Новая модель специалиста: инновационная подготовка и компетентностный подход // Высшее образование сегодня. -2004,-№8.-С. 26-31
4. Ernazarova G.O. The need to study pedagogical professional thinking/ Eurasian journal of Learning and Academic Teaching journal impact factor:8.115.ISSN(E):2795-739X. volume 5/February 2022. 95-98 p.

TURAYEVA D.R., AMANULLAYEVA U. B.Pedagogik kompetensiya - ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili sifatida	163
TURKER N., TABAK T. Learning through creative drama in tourism education	167
UMAROVA N.SH., RAIMDJANOVA G.B. Talablarda mantiqiy tafakkurni rivojlanishida kreativlik muhim omil sifatida	170
UMAROVA M.KH., MUXAMEDXODJAYEVA M.A. Individuality of the pedagogue and the modern requirements applied to him	173
УСМАНОВА М.Н. Педагогические технологии в образовании как фактор повышения учебного процесса (на примере преподавания психологии)	176
ХАЙДАРОВА Ш.А. Роль иностранных преподавателей в повышении качества образования	181
ХАЛИЛОВА Ш.Т. Развитие креативного мышления студентов в процессе обучения	186
XODJIMURATOVA Z.Z. Ta'lim jarayonida “bulutli” texnologiyalardan foydalanish	189
ADIZOVA G., ABDUAXATOVA E. Bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar	192
YULDASHEVA M. M. O'quvchilarning geometrik tasavvurini rivojlantirish	195
ҚАЙНАРОВА.И. В. Pirls дастурига кўра бошланғич синф ўқувчиларининг ўқиш саводхонлигини таъминлаш	198
QURBONOVA B. JO'RAYEVA M. Q'quv faoliyat jarayonida talabalarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish	201
ҚУРБАНОВА. М. Э Касбий-технологик вариативлик ўқув жараёнида инновацион фаолиятни ташкил этишнинг асоси сифатида	204

### III-SHO'BA:

#### XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING AHAMIYATI

Maqolaning nomlanishi	Bet
АБДУРАСУЛОВ Ф. П., НИЗОМОВ Б. У., МАЛИКОВА Д. Й. Психологические факторы в изучении и преподавании языков	211
ALIMOVA U. R., DAROBOV R. R., MUHIDDINOVA M. N. Chet tillarini o'qitish bo'yicha psixologiya sohasining zamonaviy yondashuvlari	215
BAYBAYEVA M., NIYAZMETOVA Z. S. Qualimetric approach in quality management of student education	218
EGAMBERDIEVA Sh. T. The impact of psycholinguistics approach on learning a foreign language	222
ЖУМАЕВА С. Д. “Акмал Нур” ижодий тажрибаси мисолида инглиз тили муҳитида креатив ёндашув”	226
JUMAEVA S. D. Creative features of non-traditional english lessons in the sphere of higher education	232
NURULLAEV H.H. Psychology of teaching foreign languages in higher education: modern approaches and guidelines	238
RAXMATOVA B. How to teach reading to 12 learners with the help of effective methods	241